

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов

Философия калама –рациональная основа средневекового исламского
мировоззрения..... 203

D.E.Normatova

Islom islohhiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar..... 210

B.E.Xusanov

Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili..... 215

N.M.Axmadiyev

Yoshlarning axloqiy, ma'rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan
foydanishning ahamiyati..... 220

N.N.Teshayev

Fuqarolik jamiyatni rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari 223

K.G'.Kamolova

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni 227

M.M.Qaxxorova, B.Farfiev

Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari..... 232

K.U.Sharipova

Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni..... 240

S.A.Xayrullayev

Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari..... 244

O'.X.Rajabov

Maslahat – konsensusning sinergetik omili 248

Sh.T.Abbosova

Milliy g'oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch 251

SIYOSAT**K.X.Avazov**

Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining
mazmun-mohiyati..... 254

A.A.Abdilxamedov

Huquqbazarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati..... 261

B.Y.Paluaniyazov

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahidlarning namoyon bo'lish
xususiyatlari..... 265

U.M.Kuranov

Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma'nnaviy – ma'rifiy ahamiyati 270

ТАРИХ**Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov,****K.D.Arziyev**

O'zbekistonning Samarcand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv
ishlari hisoboti..... 275

М.Х.Исамиддинов

Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития..... 309

X.Raxmatillayev

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar 314

F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G'.Rahmatova

Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari 318

N.S.Abdullayeva

Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari..... 324

S.B.Xakimova

"Xulosat ul-ahvol" asari xususida..... 329

Ш.Т.Темиров

Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное
наследие 332

MASLAHAT – KONSENSUSNING SINERGETIK OMILI

СОВЕТЫ ЯВЛЯЮТСЯ СИНЕРГИЧЕСКИМ ФАКТОРОМ КОНСЕНСУСА

ADVICE IS A SYNERGIC FACTOR OF CONSENSUS

Rajabov O'tkirjon Xursanaliyevich¹

¹Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada konsensusni qaror toptirishda sinergetik xususiyati tahlil etilgan. Mazkur jarayonda maslahat omilining dolzarbliji, maslahatlashuv jarayonining konsensusga ta'siri hamda maslahat berish tartiblari ilmiy izohlangan. Konflikt va nizolarni bartaraf etishda konsensus tamoyilining o'rni va bu jarayonda maslahat, maslahatlashuv jarayonlarini tashkil etishning falsafiy xususiyatlari ilmiy yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируется синергетическая особенность принятия консенсусных решений. В этом процессе научно объясняется актуальность фактора консультаций, влияние процесса консультаций на консенсус и процедуры консультаций. Научно объяснена роль принципа консенсуса в устранении конфликтов и споров и философские особенности организации консультаций и совещательных процессов в этом процессе.

Abstract

The article analyzes synergistically in consensus decision making. In this process, the contribution of the consultative factor, the effect of the consultative process on consensus, and the procedure are explained scientifically. The role of consensus building in the elimination of conflicts and disputes and the philosophical parts of the organization of consultation and consultation processes in this process are scientifically illuminated.

Kalit so'zlar: maslahat, konsensus, sinergetika, yetakchi, boshqaruvi, faoliyk, muloqot, tashabbus, nizo.

Ключевые слова: консультация, консенсус, синергия, менеджмент, менеджмент, деятельность, коммуникация, инициатива, конфликт.

Key words: consultation, consensus, synergy, leader, management, activity, communication, initiative, conflict.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida shaxs va guruhi, millat va xalqlarning o'zaro bir-biri bilan kelishib, tinch-totuv yashashi dolzarb masalaga aylandi.

Mazkur jarayonda konsensus tamoyili konfliktlarni bartaraf etishda o'ziga xos mexanizm vazifasini bajaradi. Ma'lumki, konsensus – bir maqsad yo'lidagi umumiyligi kelishuvni anglatib, millatlararo totuvlik va xalqlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarning garovi hisoblanadi. [1] Konsensus — bu murosaga kelish yoki yakdillik emas, eng yaxshi g'oyalalar va har bir a'zoning asosiy sharhlarini hisobga olishdir.[2]

Konsensusga erishishda turli g'oyalalar va fikrlar inobatga olinib, yakuniy qarorga qabul qilishda umumiyligi fikrlar mazmunan birlashtiriladi. Bu jarayonda umumiyligi fikrlar 2 yoki undan ko'pnini tashkil etadigan bo'lsa, konsensusning muhim komponenti bo'lgan maslahatlashuv jarayonini o'tkazish kerak bo'ladi. Konsensusga kelishda maslahat beradigan shaxs yoki guruhi bo'lsa masala ijobjiy yechim topishi imkoniy tug'iladi. Lekin maslahat beruvchi shaxsning o'z fikriga ega bo'lmasi, betaraf qolishi yoki maslahat berish ko'nikmasi shakllanmaganligi konsensus jarayoni tugallanmasligiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvida maslahatlashish tamoyilining muhim jihatlarini ko'rsatib bergen. Uning ta'kidlashicha, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdirligi pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmox lozimdir. [3] Bu o'rinda kengash boshqalar bilan maslahatlashish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish deb ta'riflasak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek xalqining madaniyatida kengashish va maslahatlashish muhim o'rinni egallaydi. "Yetti o'lchab – bir kes", "Bir bolaga yetti mahalla – ota-onasi" kabi maqollarning zamirida ham konsensusning muhim tarkibiy komponenti bo'lgan maslahatlashish aks etadi. Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida e'tirof etgan vazir Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" asarida "raiyat ahli, zulmi sitam ko'rgan har bir kishi, umuman norozi bo'lganlar amaldor va hokimdan tortib to vazir va

FALSAFA

shohning o'zigacha qabullariga borib, shikoyati va maslahatini bayon qilishlari zarur” [4] deb ta'kidlaydi. Maslahatning insonlar hayotini yanada yaxshilash va qilinayotgan ishlarning yaxshi natija bilan yakunlanishi Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asarining 128, 129, 130, 195, 417-boblarida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, 129-bobi “Mushovarat haqida” deb nomlanib, Hasan basriy (r.a.)dan quyidagi rivoyat keltiriladi: “U kishi qaysi bir jamoat (biror ishda) boshqa kishilardan maslahat so'rasa, albatta ularning ko'ngli eng yaxshi fikrga yo'l olgan bo'ladi”, dedilarda: “ularning ishi maslahat bilan bo'ladi” degan oyatini o'qidilar. [5]

Maslahat mavzusi Alisher Navoiyning “Munshaot” asarida ham muhokama etilgan bo'lib, yosh sultonlarga, beklarga va Xusayn Boyqaroni to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon Mirzoga bergen muhim maslahatlari yozib qoldirilgan. Asarda yozilgan maktublardan birida “Birishulkim, viloyat molini maslahatlashmasdan olayotganmishtsiz va bu odatga ziddir, agar so'raganingizda yo'q deyilmas edi” deya tanbeh berib o'tiladi.

Maslahatdan keyingi fazilat bu insoniylik va hamjihatlik bo'lib, Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ham o'zbek xalqining umumbashariy darajadagi fazilatlaridan biri bo'lgan bo'lgan mazkur ikki fazilat tahlil etiladi. Farobiyning ta'kidlashicha, “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”. [6] Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadidagi kishilar jamoasi – fazilatli jamoadir. Yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatni bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin.

NATIJALAR

Konsensusga erishishda xilma-xil fikrlar va takliflar asosiy o'rinda turishini inobatga olib, ayrim jarayonda ularni to'g'ri va ijobiy ahamiyat kasb etganlarini tanlashda dilemmalar paydo bo'ladi. Mazkur jarayonda dilemma holatidan chiqib ketishda maslahat omili hal qiluvchi sifatida konsensus tomon yetaklaydi. Maslahat paydo bo'lishi uchun guruhning yetakchi va tajribali shaxslari, bir maqsad yo'lidagi hamfikr shaxslar tashabbus ko'rsatib, jarayonga aralashishi, o'z tajribasidan kelib chiqib, to'g'ri yo'lni ko'rsatishi kerak bo'ladi. Maslahat beruvchi konsensus jarayonida har ikki tomonning ham manfaatlarini hisobga olishi, har bir jarayonda “insoniylik” va Yangi O'zbekistonni asosiy tamoyillaridan biri “inson qadri” uchun maslahat berishi kerak. Maslahatning oltin qoidasi – uni o'z vaqtida berishdir.

MUHOKAMA

Bugungi globallashuv davrida yer osti va usti boyliklardan foydalanish, chegaralar daxlsizligi va turli ijtimoiy masalalarda konsensus tamoyili muammolarni bartaraf etishda asosiy o'ringa chiqdi. Turli millat va xalqlar o'rtasidagi konfliktlar va nizolarni bartaraf etishda amalda bo'lgan xalqaro hujjatlarga rioya etmaslik va Birlashgan Millatlar Tashkilotining talablariga rioya etmaslik holatlari ko'paymoqda. Bunday holatda nizolashayotgan ijtimoiy guruhlarning umumiyl manfaatini hisobga olgan holda konsensusga maslahat berish yoki chaqiriq orqali munosabatlarini tartibga solish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda sodir bo'layotgan konflikt va nizolarning bosh sabablaridan biri har ikki tarafning ham bir-biriga ishonmasligidir. Barchamiz guvoh bo'lyapmiz, bugungi kunda jahon miqyosida ishonch inqirozi tobora avj olmoqda. Global xavfsizlikni ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelmoqda va xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari kuchaymoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharqda uzoq vaqtidan buyon davom etayotgan nizoli holatning nihoyatda xavfli tus olgani barchamizni jiddiy xavotirga solmoqda. Qurolli to'qnashuvda tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbanlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda. Shu munosabat bilan tomonlarni zdilik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqiramiz. Mazkur muammoning yagona va eng adolatli yechimi – nizoni “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida hal etishdir. [7] Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning mazkur bayonotlarida konsensusga gumanitar maqsadlar orqali erishish yo'li aks etgan.

Maslahatni shakllantirish va konsensus uchun yo'naltirishda tez fursatlilik, tajribalilik, tashabbuskorlik va ikki tomon uchun tinchlik yo'lini ko'rsatish — uning tarkibiy xususiyatidir.

Maslahat berish konsensusga erishishda sinergetika jarayon hisoblansada, maslahatni olish ham muhim tarkibiy element hisoblanadi. Maslahatni olishda o'zaro hurmat, insoniylik,

maslahat beruvchi insonlarni ardoqlash hamda eng asosiysi maslahatchilarni tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Turli konflikt va nizolarni bartaraf etish, turli millat va xalqlarning umumiy qarorga keltirish – murakkab jarayon bo'lib qolmoqda. Buning sababi axborot asrida ma'lumotlarni tez tarqatish hamda jamoa yig'ish kayfiyati urchga aylanayotgan hozirgi davrda istalgan yolg'on axborot konfliktlar sababchisiga aylanib qolmoqda.

Buning yana bir qiyin ssenariysi konsensusga erishishda tomonlarning o'zaro ishonchszilik kayfiyatining yuqoriligi bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, konsensusga erishish va maslahatlashishni asosiy mexanizmga aylantirishda quyidagilarni e'tiborga olish tavsiya etiladi.

- Gumanitar aloqalarni kuchaytirish, turli madaniy tadbirlarni o'tkazish;
- Maslahat kengashlarini joriy etish va bu kengashda yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash;
- Har qanday maslahatni "gumanitarlilik"ni targ'ib etish;
- Maslahatni olish madaniyatini yanada kuchaytirish, bu jarayonda tajriba va ma'rifatga ega bo'lgan insonlarni qadrlash;
- Maslahatni o'z vaqtida berish va konsensus jarayonigacha doimiy chaqiriqlar berish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'.Rajabov. "Yangi O'zbekiston – ma'rifati jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati. FarDU ilmiy xabarlar. 2023-yil 1-son. 590-594-bet.
2. Seeds for Change. Настольная книга по консенсусу Как построить эффективную работу в группе, учитывая мнение каждого участника. Радикальная теория и практика. Москва | 2014. Стр.- 8.
3. Amir Temur. "Temur tuzuklari". T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991 yil. 15-bet. (Amir Temur. "Temur's rules". T.: Publishing association named after Gafur Ghulam. 1991. Page 15.)
4. Nizomulmulk. "Siyosathnoma". T.: "Yangi asr avlodni". 2008. 11-bet. (Nizamulmulk. "Policy". T.: "Generation of the new century". 2008. Page 11.)
5. Imam Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al mufrad. www.ziyouz.com kutubxonasi. 2007. 44-bet. (Imam Ismail alBukhari. Al-adab al mufrad. www.ziyouz.com library. 2007 year. Page 44.)
6. Abu Nasr Farobi. "Fozil odamlar shahri". T.: Yangi asr avlodni. 2018. – 286-bet. (Abu Nasr Farabi. "City of virtuous people". T.: Generation of the new century. 2018. Page-286.)
7. <https://president.uz/uz/lists/view/6831> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. 2023-yil 3-noyabr.